



## XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko'chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 6 - mart

VI-59-56-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-martdagи “2022-2026-yillarda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-172-sон hamda 2022-yil 25-oktabrdagi “2022-2023-yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-408-sонli qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minalash bo‘yicha tumanda olib borilayotgan qurilish ta’mirlash ishlari to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-martdagи 2022-2026-yillarda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-172-sонli qaroriga asosan Angor tumanida “Qorasuv” va “Gulzor” mahalallarida obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish masalasida qaror bilan tasdiqlangan dasturlarga asosan joriy yilda 2 ta mahallada jami 18 mlrd 349 so‘mlik qurilish, ta’mirlash va obodonlashtirish ishlari amalga oshiriladi.

Shundan;

- respublika budjeti va qo‘srimcha manbalari hisobidan 10 mlrd 974 mln.so‘m,
- mahalliy budget va qo‘srimcha manbalari hisobidan 5 mlrd 536 mln.so‘m,
- tarmoq korxonalari mablag‘lari hisobidan 988 mln.so‘m,
- tashabbuskor tadbirkorlar va aholi mablag‘lari 560 mln.so‘m,
- tijorat bank kreditlari 235 mln.so‘m va boshqa mablag‘ hisobidan 56 mln.so‘m sarflanishi belgilangan.

Jumladan, ichimlik suvi ta’mintoni yaxshilash bo‘yicha 4 mlrd 728 mln.so‘m mablag‘lar hisobidan 1 ta suv inshoot qurish va rekonstruksiya qilish rejalarashtirilib foydalanishga topshirildi.

Ichki yo‘llarni yaxshilash maqsadida 9 522 mlrd. so‘m mablag‘lar doirasida 21 km yo‘llarga sement-beton, asfalt va shag‘al yotqizish ishlarni bajarish mo‘ljallangan.

Dastur doirasida 2 ta mahallada 9 522 mlrd. so‘mlik 47 km shundan, 8,5 km. asfalt-beton va 38,3 km. shag‘al yotqizildi.

Elektr ta’minotini yaxshilash bo‘yicha 7,7 km elektr tarmoqlari tortiladi va 121 ta tayanch ustunlar almashtirilib, 2 ta transformator o‘rnatiladi. Bu tadbirlarni amalga oshirish uchun 910,6 mln.so‘m mablag‘ ajratilgan.

Hozirda “Gulzor” MFYga 25 ta yangi tayanch ustun va “Qorasuv” MFYga 15 ta tayanch ustunlar o‘rnatildi. 1 ta transformator punktlarini o‘rnatish ishlari olib borildi.

Gaz ta’minotini yaxshilash (18,5 mln. so‘m) bo‘yicha “Gulzor” va “Qorasuv” MFYlarga 30 ta, shundan “Gulzor” MFYga 13 ta va “Qorasuv” MFYga 17 ta suyultirilgan gaz balon tarqatib berildi.

Transport infratuzilmasini yaxshilash doirasida 2 ta avtobekatlar qurildi.

Ijtimoiy soha infratuzilmasini yaxshilash bo‘yicha 3 mlrd 448 mln.so‘m mablag‘ ajratilib, mahallalarda 1 ta maktab qurilib foydalanishga topshirildi.

Jumladan, uy-joy fondini yaxshilash bo‘yicha mahallalarda 130 mln.so‘m tashabbuskor tadbirkorlar va aholi mablag‘lari hisobiga 20 ta yakka tartibdagi uy-joylarning tashqi ko‘rinishi tartibga keltirildi.

Mahalla va madaniyat obyektlarini rivojlantirish bo‘yicha qiymati 1,5 mlrd.so‘mlik 2 ta mahalla binosida qurilish ta’mirlash ishlari amalga oshirildi.

Bozor infratuzilmalarini rivojlantirish bo‘yicha 8 ta obyektlarda ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, 4 ta maishiy xizmat ko‘rsatish shaxobchalari hamda 4 ta boshqa turdag'i infratuzilma obyektlari yangidan qurildi.

Aloqa va axborotlashtirish tizimini yaxshilash yuzasidan 58,9 mln.so‘m mablag‘lar evaziga 1,8 km optik tolali aloqa tarmoqlari yangidan tortildi. Hozirda 32 mln.so‘mlik 2,3 km optik tolali aloqa tarmoqlarini qurish ishlari amalga oshirildi.

Qishloq va mahallalarni obodonlashtirish hamda arxitektura qiyofasini yaxshilash doirasida 644,0 mln.so‘m mablag‘lar evaziga 6,2 km irrigatsiya tarmoqlari, 3 km piyoda yo‘laklari, 50 ta tungi yoritish chiroqlari o‘rnatish va 10 ta yangi tipdag‘ modullar (urna) o‘rnatiladi hamda ko‘kalamzorlashtirish ishlari bajarildi.

2022-yil 25-oktabrdagi “2022-2023-yillarda mahallalar infratuzulmasini yanada yaxshilash bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-408-sonli qaror ijrosi bo‘yicha tumanda belgilangan tartibda ishlar amalga oshirilmoqda.

Angor tumanida jami 22 ta obyekt mavjud. Shundan, MFY binosi 1 ta, yoritish chiroqlari o‘rnatish 2 ta, suv obyektlari 4 ta, yo‘l obyektlari 13 ta, elektr obyekti 1 ta,

irrigatsiya obyekti 1 ta. Barcha obyektlarda ishlar boshlangan va hozirgi kunda davom etmoqda. Hozirga qadar 2 ta (Ulug‘bek va Do‘slik MFY) yoritish obyekti, 2 ta (Qadimiy Angor, Zang gilambob MFY) suv obyekti, 2 ta (Xo‘janqon, Kayran MFY) yo‘l obyekti, jami 6 ta obyektlarda ishlar to‘liq bajarilgan.

Kun tartibidagi masalalar bo‘yicha berilgan hisobotni eshitib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari Angor tuman Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-martdagи “2022-2026-yillarda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-172-son hamda 2022-yil 25-oktabrdagi “2022-2023-yillarda mahallalar infratuzulmasini yanada yaxshilash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-408-sonli qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash bo‘yicha tumanda olib borilayotgan qurilish ta’mirlash ishlari to‘g‘risida tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, communal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari A.Ishmurzoyevning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimi o‘rinbosarlari, tegishli tashkilotlar bilan birgalikda dasturlar doirasida amalga oshiriladigan loyihalar (obyektlar)ning o‘z vaqtida foydalanishga topshirilishini hamda obyektlarda olib boriladigan qurilish-montaj ishlarning sifatli bajarilishi yuzasidan davlat arxitektura-qurilish nazoratini o‘rnatish va **har oy yakuni** bo‘yicha obyektlarda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma’lumotlarni tuman hokimligiga taqdim etib borilishini ta’minlasin.

3. Xalq deputatlari tuman Kengashining deputatlariga;

- deputatlarning o‘zlari saylangan okruglarda qurilish-pudrat ishlarni amalga oshirishdan loyihalarni ishga tushirishgacha bo‘lgan jarayonlarni deputatlik nazoratiga olish tavsiya etilsin.

4. Tuman hokimligi matbuot xizmati, “Angor yog‘dusi” gazetasi tahririyati (G.Jumayeva)ga sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin..

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, communal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (M.Sadatov) zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi



X.Xolmurodov